

*Ta'la  
hugugli*  
**INSON**  
*Bargaror*  
**MAMLAKAT**  
*sari*

# SO'ZBOSHI



**Stefan Priesner**  
BMT va BMTTDning  
O'zbekistondagi Doimiy vakili

Mazkur risola Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturining (BMTTD) O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatining 20-yildan ortiq bo'lgan hamkorligini nishonlash arafasida tayyorlandi. Shu davr mobaynida milliy hamkorlarimiz va donorlar bilan birgalikda amalga oshirgan sa'y-harakatlarimiz evaziga sezilarli yutuqlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldik. Mazkur risolada eng muhim bo'lgan yutuqlarimiz haqida hikoya qilinadi, unda amalga oshirilish sohasidan qat'iy nazar, har bir tashabbusning O'zbekiston aholisi farovoligiga ko'rsatayotgan bevosita ijobji ta'siri alohida yoritilgan.

Keyingi yigirma yil ichida O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida rivojlangan, kuchli va nufuzli davlat sifatida qaror topdi. Mamlakat o'tish davri qiyinchiliklарini yengib o'tdi va xalqaro moliyaviy inqirozga bardosh berib, YalMning katta ko'satkichi hamda aholisining yuqori turmush darajasini saqlab qolishga muvaffaq bo'lmoxda, qolaversa, Orol dengizi inqirozi oqibatida yuzaga kelayotgan muammolarni yechib, barqaror o'sish va rivojlanish sari dadil qadam tashlab kelmoqda.

BMTTD O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan boshqa BMT agentliklari bilan birgalikda respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishini tezlashtiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati, mutasaddi vazirlik va idoralar, nodavlat-notijorat tashkilotlari, oquv muassasalari va aholi bilan olib borayotgan hamkorlik doirasida BMTTD mamlakatga rivojlanish sohasidagi iqtisodiy nuqtai nazardan asoslangan, innovatsion va barqaror tashabbuslarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy va ekspertlik yordamini ko'rsatib kelmoqda.

BMTTDning e'tibor markazida, avvalgidek, Inson Rivojlanishi konsepsiyasini hayotga tadbiq etish masalalari qo'yilgan. Inson rivojlanishi konsepsiyasining asosiy mazmuni shundaki, davlatning asl boyligi xalq bo'lib, mamlakatning rivojlanish darajasi har bir fuqaroning turmushi qay darajada barqaror ravishda yaxshilanayotganligi bilan o'lchanishi lozim. Shunday qilib, biz o'z faoliyatimizni to'rtta asosiy yo'nalish, ya'ni iqtisodiy farovonlikni ta'minlash, energiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, samarali davlat boshqaruvi hamda yuqori sifatli davlat xizmatlarini joriy etish yo'nalishlarida olib boramiz.

BMTTD O'zbekiston Hukumati bilan o'rnatilagan hamkorligini davom ettirish va yangi davlat tashkilotlari va donorlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, rivojlanish sohasidagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish hamda O'zbekiston xalqining farovonligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shish maqsadida tegishli bilim, tajriba va resurslarni jalb etishga intiladi.

Mazkur risola sizga manzur bo'ladi deb umid qilamiz. Shuning bilan birga, bizning rasmiy veb-saytimiz bilan ham tanishib, unda yoritilgan mavzular bo'yicha o'z fikringizni qoldirishingizni tavsiya etamiz, chunki shu orqali siz O'zbekistonning yanada yorqinroq kelajagiga o'z hissangizni qo'shgan bo'lasiz.



# BIZNING TASHABBUSLARIMIZ



**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMINI YAXSHILASH**

O'zbekistonda "elektron boshqaruv" sohasidagi dasturlarini amalga oshirish va axborot texnologiyalarini hayotga tadbiq etish orqali BMTTD aholiga davlat idoralarini faoliyati to'grisida ma'lumot berish va aholiga davlat xizmatlarini ko'satish tizimini soddalashtirish va tartibga solishga o'z hissasini qo'shyapti.

**DAVLAT BYUDJETINI TUZISHGA YANGICHA YONDASHUV**

BMTTD O'zbekiston Respublikasining davlat idoralarini bilan birgalikda mammakatning har bir fuqarosi ehtiyojlarini inobatga olgan holda byudjet tizimini isloh qilishga qaratilgan keng ko'lAMDAGI ishlarni olib bormoqda.

**BUGUNGI ISH HAQI ERTANGI FAROVONLIK KAFOLATIDIR**

Ilgari jamiatidan uzoqlashib, nafaqaga qaram bo'lib qolgan shaxslar endilikda ijtimoiy korxonalar tufayli o'zining doimiy maoshiga va oиласига yordam berish imkoniga ega bo'lib, o'z qadr-qimmatini anglashga va turmushidan g'ururlanishga asos yaratildi.

**INSHOOTLAR QANCHALIK SIFATLI BO'LSA, ATROF-MUHIT HAM SHUNCHALIK TOZA BO'LADI**

O'zbekistonda atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlarning katta qismi ijtimoiy inshootlar hissasiga to'gi kelishini inobatga olgan holda BMTTD energiya jihatdan samarador bo'lgan binolarni qurish bo'yicha me'yor va qoidalarni hayotga tadbiq etilishni Hukumatning ustuvor vazifasi deb belgilanishiga erishdi.

**DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR O'RТАSIDАГИ HAMKORLIK**

Mahalliy qishloq aholisi, joylardagi hokimiyat organları va inklyuziv biznes o'rтасидаги hamkorlik — kichik miqyosdagı rivojanishni ta'minlo'vchi samarador vositadir.

**QISHLOQNING BARQAROR RIVOJLANISHI**

Rivojanish sohasida amalga oshirilayotgan loyihalarda mahalliy aholining faol ishtiroi, jonkuyarligi va ma'suliyatiligi tufayli BMTTD o'z loyihalaring yutuq va natijalari aholiga ko'p yillar davomida xizmat qilishiga erishmoqda.



#### **AYOLLAR BANDLIGI MASALASIGA BIZNING QARASHIMIZ**

BMTTDning diqqat markazida O'zbekistonda gender masalalari borasidagi turg'un qarashlarning o'zgarishlarini o'zida mujassamlashtiruvchi noan'anaviy sohalarda faoliyat yuritayotgan ayollar.



#### **BILIM OIVNING OLDINI OLISHDAGI MUHIM OMILDIR**

Yoshlar O'zbekistonda OIV-infektsiyasi havfi ta'siriga moyil bo'lgan aholi qatlami hisoblanadi, lekin shu bilan birga yoshlar mazkur epidemiyaga qarshi kurashish uchun kerak bo'lgan beqiyos salohiyat va hayotiy kuchga ham egadir.



#### **TO'QAY O'RMONLARINI SAQLAB QOLISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR**

Tabiiy resurslardan tejamkorona foydalanimish va ularni muhofaza qilish usullarini hayotga tadbiq etib, BMTTD O'zbekistonning noyob to'qay o'rmonlarini kelgusi avlod uchun saqlab qolishini ta'minlayapti.



#### **QISHLOQ MUAMMOSINING QISHLOQDAGI YECHIMI**

O'zbekistonning qishloq joylarida yashovchi fuqarolariga turli tashabbuslarda ishtirok etish imkonini yaratish orqali ularni toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga erishilmogda.



#### **SAHRODAGI BOG'LAR**

Qishloq aholisi vakillariga kerakli bilim va texnologiyalarni o'rgatib, BMTTD qurg'oqchil yerlarda qishloq xo'jaligini yuritish sohasida yangi samarador modellarini yaratmoqda.



#### **INNOVATSIALAR TANAZZULGA UCHRAGAN YERLARNING SIFATINI OSHIRISHDA QO'L KELMOQDA**

O'zbekistonning qurg'oqchil hududlarida faoliyat yuritayotgan fermerlar yer unumdorligini oshirishga qaratilgan samarador texnologiya bo'lmissiz lazer niveliri yordamida yerni tekislash usulini qo'llab kelmoqda.

## BIZNING FAOLIYATIMIZ YIRIK PLANDA

### **Bizning faoliyatimiz**

BMTTD dunyoning 177 dan ziyod davlatida faoliyat yuritadi va mahalliy darajadagi muammolarning global yechimini taqdim etadi, shu orqali davlatlarning barqarorligini ta'minlash, insonlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish salohiyatini mustahkamlaydi. BMTTD atrof-muhit ifloslanishiga qarshi kurash, OIV/OITS o'lati tarqalishining oldini olish, samarali, adolatli davlat boshqaruvini joriy etish va iqtisodiy rivojlanish kabi bir qator dolzARB masalalarni yechish borasisa O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islarga o'z hissasini qo'shib keladi.

### **Bizning maqsadlarimiz**

O'zbekiston jahon moliyaviy inqiroziga qaramay, 2000 yillarning o'rtaidan sezilarli iqtisodiy o'sishga erishdi va 2010 yilda o'rtacha daromadli mamlakatlarning quiy pog'onasiga o'tdi. O'zbekistonning taraqqiyoti davomida BMTTD rivojlanish siyosati va strategiyasi bo'yicha o'z maslahatlari va texnik ko'mak ko'satish orqali milliy Hukumat, NNT va fuqarolik jamiyatni institutlarining ishonchli hamkor bo'lib keldi. Ayni vaqtda BMT Rivojlanish maqsadlariga ko'maklashish Sohaviy dasturi asosida BMTTD BMT Mingyllik rivojlanish maqsadlariga erishish bo rasida o'z faoliyati ko'lamini kengaytirmoqda hamda donorlar faoliyatini muvofiqlashtirib boryapti.



### BIZNING LOYIHALAR

1994 YANVAR


FEVRAL

MART

APREL

MAY

IYUN



IYUL

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

■ Makroiqtisodiy siyosat tahlili va o'quv  
mashg'ulotlari



## IQTISODIY BOSHQARUV

BMTTDning O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishi uchun hissa qo'shishga yo'naltirilgan faoliyati mamlakat bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tayotgan va bu yo'lda uchrayotgan barcha to'siqlarni bartaraf etib borayotgan muhim bir davrda amalga oshirilmoqda. BMTTD mamlakatdagi iqtisodiy boshqaruva tizimini takomillashtirish, butun respublika miqyosida kam ta'minlanganlik darajasini kamaytirishga yo'naltirilgan qator loyihalarni hayotga tatbiq etmoqda. Shuningdek, BMTTD tomonidan mahalliy miqyosda fuqarolik jamiyati va xususiy sektorni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini oshirish, qishloq joylardagi aholining yashash darajasini yaxshilash, tadbirkorlar uchun mikromoliyalashtirish va maslahatlar berish sohasiga yangi xizmatlar turkumini joriy etish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va ularning tajriba oshirishiga ko'maklashishga yo'naltirilgan loyihalarni ustida ish olib bormoqda.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston o'rtacha daromadli mamlakatlar safiga qo'shilib, 2005 yildan boshlab iqtisodiyot o'sishi yuqori sur'atdaligi kuzatiladi (o'rtacha yiliga 8 foizdan ko'p). Hukumat bu o'sishni mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi bosqichma-bosqich islohotlarning muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilganligi bilan bog'laydi.

Yalpi mahsulotning tez o'sishi mamlakatning so'nggi yillardagi daromadlarining ortishiga olib keldi, biroq, O'zbekiston sanoati rivojlangan, daromadi o'rtacha darajadagi mamlakatlar toifasida yuqori o'rinni egallab turgan davlat bo'lishga intilayotganligi sababli, uning asosiy vazifasi faqatgina yalpi mahsulotning o'sishi sur'atini

qo'llab-quvvatlashdagina emas, balki mamlakatning barcha hududlarida rivojlanishning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish hisobiga aholi farovonligini oshirishda mujassamlashgan.

### **Amalga oshirilgan ishlar**

BMTTD mamlakatda o'z ahamiyatini, shu bilan bir qatorda Hukumat bilan qator muhim yo'nalishlarda hamkorlikni saqlab qolishga erishdi. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi (ITM) va Prognozlash va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) kabi ikki yetakchi milliy tahlil markazlarining muvaffaqiyatli faoliyatiga ko'maklashishga yo'naltirilgan tashabbuslar doirasida ish olib borilmoqda.

PMTI tomonidan o'tkazilgan kompleks tadqiqotlarga asoslangan respublikadagi tadbirkorlik muhitini baholash O'zbekistonning ish iqlimini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturining boshlanishiga olib keldi. Ushbu yo'nalishda keyingi taraqqiyotga erishish uchun BMTTD xalqaro investorlarni jalb qilish, vatanimizdagи tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va mamlakatning global savdo tizimiga qo'shilishi sharoitida iqtisodiy o'sish uchun to'siq bo'lish ehtimoli mavjud jihatlarni sinchiklab tahlil qilish bo'yicha hamkorlikdagi tashabbuslarni amalga oshiradi.

O'zbekistonda davlat xarajatlarini shaffofligi va samaradorligini oshirish maqsadida BMTTD tomonidan Byudjet kodeksi loyihasi va davlat savdolari haqida yangi qonun loyihasi ishlab chiqildi va

#### BIZNING LOYIHALAR

1995

YANVAR

FEVRAL

MART

APREL

MAY

IYUN

- Xalqaro maktab masalalari bo'yicha dialog
- Sog'liqni saqlash sohasidagi iinsonning eng zaruriy ehtiyojlar: Asosiy dor vositalari
- Orol dengizi havzasini mamlakatarning bargor rivojlanishini bo'yicha konferentsiya
- Iinsonning eng zaruriy ehtiyojlar: Orol dengizi huddudida suv ta'minoti va sog'liqni saqlash sohasidagi ta'llim

- Markaziy Osiyoda tashqi savdo va tranzit borasidagi tashabbusi: Buyuk ipak yo'lini qayta tiklash



ko'rib chiqish uchun Hukumatga taqdim qilindi. BMTTD rivojlanishning aholining yaxshi himoyalanmagan qatlami uchun mablag'larni ajratish tizimini mukammallashtirish, eksporterlar uchun ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish va O'zbekistonning to'rt hududida tadbirkorlarga zarur xizmatlardan erkin foydalanishni ta'minlovchi biznesga ko'maklashuvchi markazlarni yaratish maqsadida "yagona oyna" tamoyilini joriy qilishga o'z ko'magini beradi.

2012 yilda O'zbekistonda BMTning "Orol dengizi inqirozi natijasida aziyat chekkan aholining hayot faoliyatini ta'minlash" birinchi qo'shma dasturi yo'lga qo'yildi. BMTning BMTTD, UNESCO, WHO, UNFPA va BMT Ko'ngillilari va BMTning inson xavfsizligiga yo'naltirilgan fondidan moliyalashtiriladi — besh agentlikning harakatlarini bir-lashtirgan loyiha Qoraqalpog'iston aholisi duch kelayotgan iqtisodiy, sog'lqnii saqlash va ekologik muammolarni hal qilishni ta'minlaydi. Shuningdek, 200 000 ga yaqin aholi o'ttasida sil kasalligining yuqish yo'llari, uning oldini olish va davolash choralaridan xabardor qilish kabi qator loyihalar amalga oshirilgan.

IYUL

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

■ O'zbekistonga sarmoyalarni kiritish bo'yicha xizmatlar



BMTTD faoliyati O'zbekiston Hukumatining barcha sohalaridagi salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan. BMTTD davlat boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirishga ko'maklashish, odil sudlovdan foydalanish huquqini ta'minlash, aholining xalqaro inson huquqlari tamoyillariga amal qilishdan xabardorlik darajasini oshirish, shuningdek, joriy ijtimoiy muammolarni yechish, hamda yoshlар mamlakat hayotida yanada faolroq ishtirok etishini ta'minlash maqsadida nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va davlat organlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Bundan tashqari, BMTTD O'zbekistonning davlat chegaralari xavfsizligini ta'minlashda o'z hissasini qo'shmaqda.

BMTTD, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida OIV-infektsiyasi epidemiysi bilan kurashish, davlat organlari va milliy institutlarning shaffofligini oshirish, innovatsiya va ijtimoiy ko'ngillilik konseptsiyasini joriy qilish, shuningdek, iqtisodiy diplomatiyanı rivojlantirish sohasida ish olib boradi.

### **Amalga oshirilgan ishlar**

BMTTD davlat boshqaruvini isloh qilish va joylarda boshqaruv tizimini nomarkazlashtirishga ko'maklashish maqsadida milliy institutlar bilan hamkorlik qiladi. Hukumat dasturida "elektron hukumat" tizimini hayotga tadbiq qilish masalasi ustuvor masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, BMTTD axborot texnologiyalarni amalga tadbiq qilishga qaratilgan chora-tadbirlar

hamda davlat boshqaruvini isloh qilishga qaratilgan faoliyatni bir-biri bilan uzviy bog'lashni ko'zda tutuvchi ish rejasini ishlab chiqishda Hukumatga yordam ko'rsatyapti. Bundan tashqari, BMTTDning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalari bo'yicha departamentining elektron hukumatining rivojlanish darajasi to'g'risidagi hisobotida O'zbekiston xalqaro elektron hukumatiga taalluqli me'yorlarga butunlay javob berish yo'lida tez sur'atlar bilan qadam bosib kelayotganligi ta'kidlangan. Yaqinda mamlakat davlat portallarini takomillashtirish maqsadida milliy qonunchilikiga kiritilgan bir qator o'zgartirishlar shuning yaqqol isbotidir. Mazkur yutuq BMTTDning elektron hukumati tizimini hayotga joriy qilish sohasidagi yordami, xususan, shu sohada ilg'or xalqaro tajribalarni mamlakatga tatbiq etishi, innovatsion yechimlarni sinov tariqasida amalga oshirishi, davlat boshqaruv tizimiga axborot texnologiyalarning singdirilganligi darajasini aniqlashga qaratilgan BMTTDning elektron hukumati indekslarining amalga kiritishi, hamda milliy hujjat almashinuvu tizimi, ya'ni "E-Hujjat" tizimining takomillashtirishining natijasidir.

BMTTD aholining odil sud tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash sohasida keng faoliyat yuritmoqda. Siyosiy muloqot, tahliliy ishlar hamda amalga oshirilgan bir qator tajribaviy loyiҳalar evaziga, BMTTD texnik yordam ko'rsatishdan vodhlab to islohot dasturini ishlab chiqishgacha yordam ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi. Xususan, sud ishlarini "elektron sud" tizimi orqali ko'rib chiqish konseptsiyasini sinovdan o'tkazilib, bunday tizim butun mamlakat bo'ylab qo'llanilishi

### **BIZNING LOYIHALAR**

1996 YANVAR

FEVRAL

MART

APREL

MAY

IYUN

- Insonning eng zaruriy ehtiyojlar: Ish joylarini yaratish
- O'zbekistonda turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlash rejasи
- Biznes-inkubatorlar tarmog'ini yaratish

- Xususiylashtirish va xususiy sektor rivojalishiga texnik yordam ko'rsatish (II)
- «Nukusning yashil himoyasi» dasturini tayyrolashta qaratilgan loyiha


mumkinligi isbotlandi. Yangi tizim sud ishlarini tartibga solib, sudyalarning ish yukuni kamaytirishga va ular faoliyatini baholashda yangi mezonlardan foydalanishga imkon yaratadi.

Parlamentning (Oliy Majlis) asosiy funksiyalari parlament jurnalistikasini mukammallashtirish, NNT bilan hamkorlik aloqalarini, shuningdek, turli sohalardagi maxsus xizmatlarni soddalashtirish hisobiga kengaytirildi.

BMTTD inklyuziv boshqaruv tizimini mukammallashtirishga fuqarolik jamiyati tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar va jamoatchilik vakillarining qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokini rag'batlantirish yo'li bilan ko'maklashadi. BMTTD O'zbekistonda jismoniy imkoniyati cheklangan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan ayollar uchun 10 ta ijtimoiy korxona va nodavlat tashkilotlar asosida 5 ta ijtimoiy xizmatlarini tajriba tariqasida joriy etdi.

BMTTD OIV tarqalishining oldini olish maqsadida o'zining milliy hamkorlar bilan birgalikda infeksiyaga moyil bo'lgan yoshlar uchun sifatli profilaktika xizmatlaridan foydalanish, davolanish imkoniyatini ta'minlash sohasida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Mintaqaviy chegaralarning xavfsizligini ta'minlash va qonuniy savdosotiqli qo'llab-quvvatlash maqsadida Markaziy Osiyoda chegaralarni boshqarishga ko'maklashish dasturi amalga oshirilmoqda.



IYUL

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

- O'zbekistonda madaniy turizmni takomillashtirish, yangi ish joylarini yaratish va hunarmandlikni rivojlantirish

- O'zbekistonning davlat idoralariga xususiylashtirish sarmoya jam'armalari orqali o'rta va yirik korxonalarни xususiylashtirishda yordam berish
- Inson rivojlanishi bo'yicha hisobot 1997
- O'zbekistonda internetga ularishning yaxshilanishi

- Bioimmaxilik sohasidagi milliy strategiya va ish rejasи
- Hukumatning davlat qarzlarini boshqarish sohasidagi salohiyatini mustahkamlash



Aholisi soni oshib borayotganligi, iqtisodiyoti tez sur'atlarda rivojlanayotgani bois hamda geografiyasi va iqlimi jihatidan o'ziga xos tomonlari O'zbekistonning ba'zi iqtisodiy muammolarga duch kelish xavfini kuchaytiradi. Hozirgi vaqtida davlat oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biri mamlakatda amalga oshirilayotgan kelgisidagi sanoat-iqtisodiy rivojlanish talablari asosida tabiat resurslarini boshqarish tizimining samarasini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni muvozanatga solish hisoblanadi.

BMTTD milliy institutlar bilan yaqin hamkorlikda mahalliy birlashmlarga ham, tabiat resurslarini boshqarish va atrof-muhitni asrashga mas'ul bo'lgan davlat organlariga ham o'z ko'magini berib kelmoqda.

### **Amalga oshirilgan ishlar**

O'zbekistonda tanazzulga uchragan yerlarning sifatini yaxshilash sohasida milliy salohiyatni oshirish, ayniqsa, Orolbo'yidagi tashabbusimizning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yerlarni cho'llashish va tanazzulga uchrashdan qutqargan holda zaif ekotizimlarni mustahkamlash, shuningdek landshaft darajasida boshqarishni integratsiyalash – bo'lim tomonidan amalga oshirilayotgan qator muhim tadbirlarga misol bo'laadi. Boshqa tashabbuslar Zarafshon daryosi havzasidagi cheklangan suv resurslaridan yanada samarali foydalanishga qaratilgan.

Respublika o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlardan biri energiyaning tiklanadigan manbalarini va milliy iqtisodiyotning asosiy sektorlarida

energiya samaradorligi kontseptsiyasining keyinchalik joriy qilinishiga ko'maklashish hisoblanadi. O'zbekistonda ijtimoiy ahamiyatga molik binolarning energiya samaradorligi kontseptsiyasini ilgari surish tashabbuslari, shuningdek, energiyaning ekologik toza manbalarini joriy qilishga ko'maklashish ham bizning O'zbekistondagi faoliyatimiz asosini tashkil etadi.


O'zbekiston tabiatи noyob, ammo yo'qolib ketish xavfiga uchrayotgan o'simlik va hayvonot dunyosiga boydir. BMTTD O'zbekistonning neft-gaz sektoridagi kompaniyalar bilan ular faoliyati hudud uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan yovvoyi tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlash maqsadida yaqindan hamkorlik qiladi. Boshqa tashabbuslar qaytadan yaratilgan Quyi Amudaryo Davlat biosfera rezervatini saqlash va himoya qilishga qaratilgan. Shuningdek, 2011-2020 yillarda O'zbekistonda bioxilma-xillikni saqlash sohasidagi strategik reja doirasida mamlakatda bioxilma-xillikni saqlash chora-tadbirlari qabul qilinmoqda. Bunda tashqari, O'zbekistonning qo'riqxonalar milliy tizimi barqarorligini kengaytirish va mustahkamlash sohasida ish olib borilmoqda.

O'zbekiston yuqori seysmik zonasida joylashganligi sababli, uning hududida kuchli zilzilalar sodir bo'lgan. Shuning uchun, BMTTDning yana bir yo'nalishi O'zbekistonning aholisi va muvofiq idoralarni tabiiy ofatlar yuzaga kelganda o'zini qanday tutish qoidalaridan xabardor qilish hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi oqibatlarini bartaraf qilish uchun tabiiy ofatlarning xavfini kamaytirishning mohiyati BMTTDning iqlimi xavf-xatarlarni boshqarish sohasidagi noyob dasturi doirasida namoyish qilindi.

#### **BIZNING LOYIHALAR**

1997	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
------	--------	--------	------	-------	-----	------

- Insonnинг eng zaruriy ehtiyojolari — Orol dengizi qirg'og'ini qayta tiklash va aholi salohiyatini tiklash dasturi, (I)
- O'zbekistonda ayollar huquqi va imkoniyatlarini kengaytirish
- Parallel moliyalashtirish hisobi
- Orolning qutqarish xalqaro jamg'armasining Jiroiya qo'mitasini boshqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xizmatlar
- Ayol va erkaklar teng huquqligini va rivojlanish sohasidagi milliy salohiyatni kuchaytirish



IYUL

- Ijtimoiy islohotlar jamg'armasining «O'sish, ish joylari va daromad» dasturini ishlab chiqishda yordam berish
- O'zbekistonda iqlim o'zgarishi sohasidagi olib borilgan tadqiqot

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

- Dasturiy yordam loyihasi

- O'zbekistonda demokratashtirish, inson huquqlari va boshqarish masalalari



## FAOLIYATIMIZ NATIJALARI RAQAMLARDA

### Orol Dengizi

Fermerlarga suv resurslarini tejaydigan qishloq xo'jaligi texnologiyasi bo'lmissiz lazer yordamida dala maydonini tekislash uchun zarur uskunalar taqdim etildi. Quyi Amudaryo Davlat Biosfera Rezervati hududida istiqomat qiluvchi erkak va ayollar yer resurslarini boshqarish hamda tanazzullaiga uchragan yerlarni qayta o'zlashtirish sohasida barqaror va samarador usullarini o'rganishga muvaffaq bo'ldi.



### Iqlim o'zgarishi

Biz 3,5 million sertifikatlangan uglerod qisqartmalariga erishib, mamlakatning uglerod isini chiqarish darajasini qisqartirishga muvaffaq bo'ldik. Bizning yordamimizda Hukumat o'zining biogaz texnologiyalari sohasida siyosatini ishlab chiqib, 5000 nafar fermer ushbu qimmatli moqobil quvvat manbaidan foydalanish usullarini o'zlashtirdi. Biz hajmi 2.6 milliard AQSh dollariga teng tabiiy gazni tejashta erishishga yordam beradigan energiyaga tejamkor usullarni ilgari suramiz.

### Mahalliy boshqaruv tizimi

Joylardagi mahalliy hokimiyat organlarining ochiq va shaffofligini oshirish hamda fuqarolar bilan aloqalarini yaxshilash maqsadida ularda onlayn boshqaruv tizimi va axborot xizmatlari joriy etildi.

### Suv resurslari

O'zbekistonning turli mintaqalarida istiqomat qiluvchi 2 million nafardan oshiq aholiga toza suv manbai ochildi.

#### BIZNING LOYIHALAR

1998

YANVAR

FEVRAL

MART

APREL

MAY

IYUN

- O'zbekiston Respublikaning Barqaror rivojlanishi bo'yicha milliy komissiya
- Pochta xizmatlarini rivojlantrish. Loyiha miqyosida tegishli texnik xizmatlarini qo'llab-quvvatlash
- O'zgarishlarni boshqarish: Bilim va ko'nikmalarni tezkor shakllantirib tarqatish (II)
- O'zbekistonda madaniy turizmni takomillashtirish, yangi ish joylarini yaratish va hunarmandlikni rivojlantrish
- Iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar markazi
- Nuratou-Qizilqum biosfera rezervatini O'zbekistonda bioxilmassilkni saqlash modeli sifatida barpo etish



### OIVga qarshi kurash

OIVga chalingan 24 000 nafar erkak va ayollar kerakli tibbiy yordam olmoqda. 70 000 nafar yoshlarga OIV profilaktiki bo'yicha xizmatlar ko'rsatilyapti. 3800 nafar erkak va ayollar antiretrovirus terapiyasini olmoqda.

### Yerlarning tanazzulga uchrashi

Biz 6000 hektar yaylov va 1000 hektar o'rmon yerlarning o'simlik qoplamini yaxshilamoqdamiz. 50 000 nafar erkak va ayol yer resurslarini boshqarishning yangi yondashuvlarini qo'llab kelmoqda.

### Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish

Tabiiy ofatlar yuzaga kelgанинда ko'rildigan choralar borasida tegishli davlat xodimlari va aholining bilim va tajribasi oshirildi. Tabiiy ofat paytida aloqani yengillashtirish maqsadida mobil telefonlar uchun maxsus ilova yaratildi.

### Tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish

Hukumat tomonidan tasdiqlangan tartib va qoidalar to'grisida ma'lumot beruvchi <http://www.businessinfo.uz> ma'lumot portalı yaratildi. Tadbirkorlar faoliyatini elektron ro'yxatdan o'tkazish haqidagi Hukumat qarorining loyihasi ishlab chiqildi.

IYUL

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

- O'zbekistondagi ish rejasini amalga oshirishga ko'rsatilayotgan dashtlabki yordam

- Issiq suv ta'minoti va isitish communal xizmatlarining samaradorligini oshirishdagi to'siglarni yengib o'tish



BMTTD O'zbekistonda barcha manfaatdor tomonlar, shu jumladan, milliy va xorijiy hamkorlar bilan sheriklik munosabatlari rivojlantirish borasida bir qator tashabbuslarni amalga oshirish bilan birga, dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va tahlil qilishning barcha bosqichlarida, shuningdek, ilg'or tajribalarini o'rganish va amaliyotga joriy qilish jarayonlarida birqalikda ish olib bormoqda.

BMTTD O'zbekistondagi fuqarolik jamiyatni institutlari, NNT, jamoat tashkilotlari, oliy o'quv yurtlari hamda milliy va xalqaro ommaviy axborot vositalari bilan faol hamkorlik qiladi. BMTTD o'zining ko'plab dasturlari doirasida davlat-xususiy sektor hamkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida xususiy sektor vakillari bilan hamkorlik qiladi.

BMTTDning ma'rify-axborot faoliyati va hamkorligi ham xalqaro hamjamiatni qamrab oladi. Ushbu hamkorlik BMTDning agentliklari, donor tashkilotlar va O'zbekistonda taraqqiyot sohasida faoliyat olib borayotgan hamkor-tashkilotlarni o'ziga jalb etgan. Shuningdek, BMTTD xalqaro nodavlat tashkilotlar va fondlar bilan ham sheriklik qilib keladi.

BMTTDning O'zbekistondagi faoliyatini uning donorlarisiz tasavvur etish qiyin. 2000 yildan boshlab BMTTD o'zining O'zbekistondagi faoliyati davomida turli loyihibar doirasida jami 190 million AQSh dollarini miqdordagi mablag'larni jalb etib, tegishli maqsadlarda sarfladi. Bu mablag'lar, xususan, parallel moliyalashtirish mexanizmiga asoslangan dasturlar doirasida jalb etilgan 105 million AQSh dollarini

hamda turli maqsadli fondlardan qabul qilingan 32 million AQSh dollarini o'z ichiga oladi. Bizning eng muhim hamkor va donorimiz O'zbekiston Respublikasi Hukumati bo'lib, 2000-yildan buyon u BMTTDning loyihibariga jami 52 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratgan (shundan 47 million AQSh dollari Jahon banki qarzlari hisobidan ajratilgan).

2000-yildan buyon BMTTDning eng muhim donori OIV/OITS, sil va bezgakka qarshi kurashish global fondi, Yevropa Ittifoqi, Global ekologiya fondi va Jahon banki bo'lib kelmoqda. OIV/OITSga qarshi kurash sohasida BMTTDning asosiy hamkor bo'lmish Global fondning 2000-yildan boshlab ko'satgan moliyaviy yordami 45 million AQSh dollaridan ziyod miqdordagi mablag'ni tashkil etadi. Global ekologiya fondi ham 2000-yildan buyon 10 million AQSh dollaridan ziyod miqdorda moliyaviy yordam ajratgan, xususan, bu mablag'lar "Ijtimoiy inshootlarda energiya samaradorligini oshirish" loyihasi, qo'riqlanuvchi tabiiy hududlarni tashkil etishga qaratilgan tashabbuslar hamda Kichik grantlar dasturining ekologik rivojlanish maqsadlariga qaratilgan bir qator tadbirlarni o'gazishga sarflangan.

Yevropa Ittifoqi 2004-yildan buyon BMTTDning loyihibariga 17 million AQSh dollaridan ziyod miqdorda moliyaviy yordam bergan. Jahon banki ham 2010 va 2011-yillarda BMTTDning OITSga qarshi kurashish sohasidagi tashabbuslari va Aholi turmushini yaxshilash dasturini ishlab chiqish borasidagi ishlarni amalga oshirishga 1,5 million AQSh dollaridan ziyod moliyaviy ko'mak ko'satgan.

#### BIZNING LOYIHALAR

1999	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
------	--------	--------	------	-------	-----	------

- «SINO» korxonasida sovutgichlarni ishlab chiqish jarayonida hosil bo'ladigan xlorfto-ruglerdini yo'qotish
- Mahalliy salohiyatni oshirishga qaratilgan kasbiy ta'limi rivojlantirish
- Marказији Осиёда ўрік қорамоларының емләш
- Kasbiy ta'lim sohasidagi ehtiyojlarını baholash
- Қоралпакстанда мікрокредитлаш дастури
- Қоралпакстан Автоном Республикасыда noformal ta'lim
- O'zbekistonda OIV/OITS va jinsiy yo'llan o'tagan kasalliklarga qarshi kurashishda ko'p sektorlik yondashuvni qo'llash

- O'zbekistonda zakhsh hududlarning biologik xilmassisligini saqlash yo'llarini namoyish qilish
- Qarshida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasidagi nodavlat-notijorat tashkilotlarning salohiyatini oshirish

### BMTTDning O'zbekistonidagi Vakolatxonasining yillik byudjeti



IYUL

- O'zbekistonda kichik va o'rta tadbirkorlarning rivojlantrish
- O'zbekistonda biznes-inkubatorlar taromog'ini rivojlantrish

AVGUST

- Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklanish bankining №4216-UZ zaymi hisobidan amalga oshiniladigan loyihalarni ishlab chiqishdagi milliy salohiyatni mustahkamlash
- Xalqaro molibiyiy institutlar tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarni amalga oshirish sohasidagi milliy salohiyatni kuchaytirish /Suv ta'minoti, sanitariya va sog'liqni saqlash

SENTABR

- Suv ta'minoti, sanitariya va sog'liqni saqlash loyihasi
- O'zbekistonda tabiiy ofatlarga tayyorgarlikni yaxshilashga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqishga yordamlashish bo'yicha xizmatlar
- O'zbekistonidagi ekologiya sohasidagi loyihalarni klaster usulida baholash va shu sohada mavjud entiyojlarni aniqlash

OKTABR

NOYABR

- Xlodenernlarni qayta tiklash va resirkulyatsiyasi bo'yicha milliy dasturni amalga oshirish
- O'zgarishlarni boshqarish: Bilim va konikmalarни tezkor shakllantirib taraqtiш-3-bosqich

DEKABR



# KELAJAKDAGI ISHLAR REJASI

Keyingi yigirma yillik davr ichida O'zbekiston o'z tanlagan ning taraqqiyot yo'lidagi katta qiyinchiliklarni yengib o'tishga muvaffaq bo'ldi, va hozirda dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoridan joy egallash arafasidadir. Oldingi yillarda BMTTDning O'zbekistondagi faoliyatida pirovard vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni ilgari surish bo'lsa, hozirgi paytda u erishilgan o'zgarishlarning barqarorligi, turg'unligini ta'minlashdan iboratdir.

Davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish borasida BMTTD O'zbekiston Hukumatining davlat moliyalari tizimining samaradorligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatlashda davom etadi. Ushbu maqsadda asosiy e'tibor mamlakatning byudjet tartib-taomillari va davlat xaridlari tizimini isloh qilishga qaratiladi. "Yagona oyna markazlari"ni tashkil etish borasidagi tash-abbuslarning ko'lami ham yanada kengaytirishi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, davlat tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning "elektron billingi" tizimining konsepsiysi ham Hukumatga taqdim etilib, respublikaning sud tizimida "elektron boshqaruv" vositalarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar ham rejaga kiritilgan.

OIV/OITSga qarshi kurash BMTTDning O'zbekistondagi faoliyatida ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Xususan, OIVga qarshi kurash sohasida majmuaviy qonun hujjatlarini ishlab chiqish hamda Toshkent shahrida maxsus OIV telefon liniyasini tajriba ravishda joriy etish bo'yicha ishlarga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, BMTTD ijtimoiy tenglik va hamnafaslik hamda O'zbekistonning ijti-

moiy-iqtisodiy rivojlanishida fuqarolarning yanada faolroq ishtirokini ilgari surishga, aholi bandligini ta'minlash davlat dasturiga yordam ko'satishtiga hamda nodavlat-notijorat tashkilotlarni ijtimoiy xizmatlar sohasiga yanada ko'proq jalb etishga qaratilgan faoliyatini davom ettiradi.

BMTTD hamkorlarni muqobil energiya manbailarini rivojlantirish va ulardan foydalanish sohasida qo'llab-quvvatlaydi. BMTTD uchun yer va suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari ilgarigidek katta ahamiyatga ega bo'lib, BMTTD o'z faoliyati doirasida mazkur resurslardan aholining ijtimoiy himiyaga muhtoj qatlamlari foydalana olishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. Qishloq aholisining tabiiy ofatlarga tayyorgarligini ta'minlashga oid masalalar ham BMTTDning e'tibor markazida bo'ladi.

Davlat miqyosida BMTTD O'zbekiston Respublikasi Hukumatining iqtisodiy diplomatiya konsepsiyasini institutlashtirish bilan birga xalqaro maydonda mamlakatning iqtisodiy mavqeini yaxshilashga qaratilgan intilishlarini qo'llab-quvvatlashda davom etadi. Shuningdek, BMTTD O'zbekiston Butunjahon savdo tashkilotiga qo'shilish yo'lidagi sa'y-harakatlariga ko'ssatayotgan yordamini kelajakda ham davom ettirishni rejalashtirgan. Ushbu tadbirlar O'zbekistonning iqtisodiyotini yanada mustahkamlab, mamlakat aholisining turmushiga bevosita ijobji ta'sir ko'satishi aniq. BMTTD kelgusi yillarda ham o'z loyihibarida inson rivojlanishi konsepsiyasini aks ettiribgina qolmay, mamlakat yoshlari, mutaxassislari va boshqaruvchilari ham o'z

BIZNING LOYIHALAR						
2000	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
■ «SINO» korxonasida sovutgichlarni ishlab chiqish jarayonida hosil bo'ladigan xlortoruglerdoni yo'qotish	■ Tayyorlarlik bosqichidagi yordam: Ekologiya menejmenti sohasida milliy salohiyatni mustahkamlash	■ O'zbekistonda internet texnologiyalari ni rivojlanish va targatish sohasidagi mamlakat salohiyatini oshirish			■ Savdo va ekportni qo'llash bo'yicha telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlanishga qaratilgan loyihamni ishlab chiqish	



faoliyatida ushbu konsepsiya rioya etishiga yordam berib keladi. Bundan tashqari, inson rivojlanishi konsepsiysi maxsus oliy ta'lif hamda yozgi maktab kurslari orgali ham tarqatilishi davom etadi. O'zbekistonning xususiy tadbirkorlari, hukumat vakillari va jamoat tashkilotlariga mo'ljallangan bosma material va hisobotlar ham nashr etilishi ko'zda tutilgan.

Kelgusida BMTTD O'zbekistondagi faoliyatida o'zining doimiy hamkorlari bilan ikki tomonlama foydali munosabatlarni qo'llab, O'zbekiston aholisi va loyiha benefitsiarlarida amalga oshirilayotgan tashabbuslarga nisbatan jonkuyarlik, yanada kuchliroq mas'uliyat hisini uyg'otishga intilaveradi. Shu bilan birga, ayni paytda amalga oshirilayotgan va kelgusi loyihiilar natijalarining barqarorligini, dolzarb muammolarning yangicha yechimlarini ta'minlash maqsadida BMTTD milliy va xalqaro donor tashkilotlari bilan uzoq istiqbollarga mo'ljallangan hamkorlik aloqlarini mustahkamlashda davom etadi.

O'tgan yillarda mobaynida erishilgan yutuq va natijalar kelgusida amalga oshiriladigan tashabbus va loyihiilar uchun mustahkam zamin bo'lgani holda BMTTDning O'zbekistondagi faoliyatida kelgusida yangi muvaffaqiyatlar, yutuqlarga erishishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusi loyihiilar doirasida samarador tajribaviy tashabbuslar ko'lamenti kengaytirib, ularni butun mamlakat miqyosida amalga oshirish hamda O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlarini davom ettirib, mamlakatning har bir fuqarosi to'laqonli, sermazmun hayot kechirishiga yordam berish eng asosiy maqsad bo'lib qoladi.

#### IYUL

- Internetga ulangan jamotchilik joylarini yaratish

#### AVGUST

#### SENTABR

- Tayyorlarlik bosqichidagi yordam: «Bar-qaror daromad manbaini shakllantirish dasturi»

#### OKTABR

#### NOYABR

- Iqlim o'zgarishiga moslashish sohasidagi chora-tadbirlarini tezlashtirilgan ravishda molyalashtirish (I)

#### DEKABR

- O'zbekistonda qurg'oqchilik oqibatlari ni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar



# TASHABBUSLAR



## BIZNING LOYIHALAR

2001 YANVAR

FEVRAL

MART

APREL

MAY

IYUN

- O'zbekiston Hukumatining rivojlanish loyihalari borasidagi salohiyatini oshirish dasturi

- Ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni hayotga tadbiq qilish maqsadida inson resurslarini rivojlantrish
- Manzakatning bargor rivojlanish sohasidagi salohiyatini oshirish

- Nuratou-Qizilqum biosfera rezervinasi O'zbekistonda bioxilmoxillikni saqlash modeli sifatida barpo etish

- Kam ta'minlangan oilalarning adliya tizimidan foydalanaolish imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi nodavlat-notijorat tashkilotlarning salohiyatini oshirish



IYUL

■ Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi

AVGUST

SENTABR

■ Orol dengizi hududining janubiy qismida-  
gi qayirlarida o'sayotgan to'qay o'rmonlar-  
ini saqlab qolish

OKTABR

NOYABR

DEKABR



# AXBOROT TEKNOLOGIYALARI — BOSHQARUV TIZIMIDA

Eng muhim yangiliklardan biri viloyat hokimiyatlari qoshida "E-Hujjat" nomli elektron hujjat almashish tizimining joriy etilishi bo'ldi, desak mubolog'a bo'lmaydi. Jizzax viloyati hokimligida katta mutaxassis bo'lib ishlayotgan Furqat Sanginov uchun bu tizimning joriy etilishi hech qanday samarasiz bo'lgan "qog'ozbozlik"ning o'rniqa qulay va mamlakat bo'ylab barcha aholiga ochiq bo'lgan ma'lumotlarning yagona elektron bazasidan foydalanish imkoniyatini yaratdi.

"Oldinlari bir necha soatlarga cho'zilgan oddiy bir jarayon endilikda bir necha daqiqa ichida amalga oshirilmoxda, — deydi Furqat Sanginov, ilgarilar qog'oz uyumlariga to'la bo'lgan, endilikda esa bir nechtagina papkalar va kompyuter turgan stolida o'tirar ekan. — Bizda axborotlarni qayta ishslash va aholining ehtiyojlarini qondirishda bunchalik tezkorlik hech qachon kuzatilmagan edi".

BMTTD 30 ta mahalliy hokimliklarga "E-Hujjat" elektron hujjat almashish tizimini o'rnatdi. Ushbu tizim hujjatlarni nafaqat bir idoradan boshqasiga, balki bir idoraning bir bo'limidan ikkinchi bo'limiga tezlikda jo'natish imkonini beradi.

Kelajakda elektron hujjat almashish tizimini takomillashtirish maqsadida zarur bo'lgan axborot texnologiyalari jihozlari, shu jumladan,

ko'p funksiyali printerlar, skanerlar va lokal tizimlar elementlari keltilirdi. Shuningdek, elektron hujjat almashish tizimi platformasining operativ mosligini takomillashtirish jarayonida ham BMTTD o'zining ekspertlik tavsiyalarini taqdim etdi. Yangi dasturiy ta'minotdan foydalanish bo'yicha 200 nafardan ziyod davlat xizmatchisi, jumladan, Furqat Sanginov ham o'qitildi.

Axborot tizimining joriy etilishi Jizzax viloyati hokimligiga nihoyatda foydalı bo'ldi, chunki u hujjatlar yuzasidan yanada qattiqroq nazorat o'rnatish hamda hokimliklararo va hokimlik bo'limlari o'rtasidagi aloqalarning samarasini yanada oshiribgina qolmay, hokimiyat organlarining oshkoraliqi va hisobdorligini oshirish, qaror qabul qilish jarayonini tartibga solish va qog'ozga sarflanadigan xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish imkonini yaratdi.

"2012 yilning o'zida qog'ozga bo'lgan ehtiyoj 2-3 barobar qisqardi, - deydi Jizzax viloyati Ma'muriy bo'limi boshlig'i Vahob Alimqulov. - Biz tejalgan mablag'lardan byudjetning boshqa moddalari, masalan, suv ta'minati, quvurlarni montaj qilish, shahar obodonchiligi va boshqa dolzarb masalalarni hal etish uchun foydalanish imkoniga ega bo'ldik".

BIZNING LOYIHALAR	2002   YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
-------------------	---------------	--------	------	-------	-----	------

- Qurg'ochilikning oldini olish masalalari bo'yicha O'zbekiston Hukumatiga maslahat berish
- Qashqadaryo viloyatida barqoror daromad manbalari va ish joylarini yaratish maqsadida mikroreditlash tizimini rivojlanish
- Markaziy Osiyoda inson xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan muvofiqlashgan preventiv rivojlanish strategiyasi



IYUL

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

- Raqamli texnologiyalarini rivojlantirish dasturi



# DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR O'RTASIDAGI HAMKORLIK

"Korxonamizni tashkil etishdan asosiy maqsad yosh xotin-qizlarimizga hunarmandchilik asoslarini o'rgatib, ularni bir-biri bilan muloqot qilishiga va jamiyatimizning hayotida faol ishtirok etishiga da'vat qilish, rag'batlantirishdan iborat, — dedi "Urganch milliy tikuvchilik" korxonasining rahbari Farog'at Sa'dullayeva BMTTDning O'zbekistondagi Vakolatxonasiga. — Bizning sa'y-harakatlarimiz ularga xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshlashga va shu orqali ishsizlik muammosini yechishga yordam beradi deb umid qilamiz".

Farog'at Sa'dullayevaning ijtimoiy korxonasi oldin ishsiz bo'lgan va jamiyatdan uzoqlashib qolgan 45 nafar ayolni qo'llab-quvvatlaydi, ularga an'anaviy tikish-bichish san'atining sir-sinaotlarini o'rgatadi hamda ularni ish bilan ta'minlab, doimiy daromad topish imkoniyatini yaratadi va jamiyat hayotida faol qatnashib, o'z o'rnni topib ketishiga yordam beradi. Qo'shimcha moliyaviy yordam evaziga Farog'at Sa'dullayeva o'z korxonasini kengaytirib, Urganchdagi eshitish qobiliyati sust bo'lgan bolalar maktab-internati o'quvchilarini ham qamrab olishni rejalashtirib qo'yan.

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik doirasida BMTTD qishloq aholisining turmushi, farovonligini oshirishga qaratilgan bir qator tashabbuslarni amalga oshirib kelmoqda. "Chashmai safed" fermasi qoshidagi sut yig'ish punkti Kosonsoy tumani qishloqlarida bir nechta sigir saqlayotgan kichik uy xo'jaliklarining iqtisodiy farovonligini oshirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Har kuni sut yig'ish punkti yaqin atrofda joylashgan 200 ta uy xo'jaliklaridan belgilangan narxda

4000 litr sut xarid qilib, har kuni mahalliy aholiga jami 2000 AQSh dollari miqdorida pul to'lab kelmoqda. Keyin xarid qilingan sut turli sutni qayta ishlab chiqaruvchilariga, yoki mahalliy bozorlarda yana qishloq aholisining o'ziga, maktab, bolalar bog'chasi va shifoxonalarga sotiladi. Bunday sut yig'ish punktini tashkil qilish natijasida biznesning yangi modeli vujudga kelib, xuddi shu model bo'yicha Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida yana bir sut yig'ish punktini yaratilish rejalashtirilgan.

"Sut yig'ish punkti aholidayan sutni yig'ib olish jarayonini nihoyatda yengillashtirdi: hozirda biz qo'shni qishloqlardan har kuni o'rtacha 4,5 tonna sut sotib olamiz, bundan tashqari, o'zimizning fermada ham har kuni 3,5 tonna sut ishlab chiqiladi. Bu esa bizda kuniga 8 tonna sutni qayta ishslash quvvatiga ega bo'lgan sexni to'liq ishga solishimizga imkoniyat yaratayapti. Mazkur punktning yanada bir afzalligi — u yetkazib berayotgan sutning sifatini tekshirib, tahlil qilish imkonini beradi, — deb ta'kidladi ferma mulkdori Homidxon Moiddinxo'jayev. — Ammo eng muhimi, biz hozir aholining turmushini yaxshilashga o'z hissamizni qo'sha olishimizdir".

Yuqoridagi uchta "inklyuziv korxonalar"ning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi BMTTD va uning milliy hamkorlariga bir narsani yaqqol namoyon qildi, u ham bo'lsa davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik qishloq aholisining barqaror rivojlanishga erishishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilishi va bu vositadan keyinlikda butun O'zbekiston miqyosida foydalanish maqsadga muvofiqligidir.

## BIZNING LOYIHALAR

2003

YANVAR

FEVRAL

MART

APREL

MAY

IYUN

- Qoraqalpog'istonning qishloq aholisi uchun toza energiya
- Markaziy Osiyoda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi bo'yicha milliy ma'lumot tarmoq'i



IYUL

- Suv isitish uchun quyoshi energiyasi panellarini mahalliy sharoitlarda ishlab chiqarish texnologiyalari transferti
- O'zbekiston Respublikasining qurolli kuchlarida OIV/OITS profilaktikasi das-turini ishlab chiqish

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

- O'zbekistonda kichik va mikrokorxonalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan aloqa va ma'lumot texnologiyalarining hayotga tadbiq etilishiha yordam berish
- Inson huquqlarini ilgari surish va muhofaza qilish bo'yicha majmuaviy loyiha

# DAVLAT BYUDJETINI TUZISHDAGI YANGICHA YONDASHUV

Moliya vazirligining Jizzah viloyati G'aznachiligi bo'lim boshlig'i Botir Pardayevdan natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish nima deb so'rashangiz, u sizga bu byudjetni rejalashtirish va bajarishda qo'llanadigan yangicha yondashuv, bu yondashuvda asosiy maqsad mablag'larni faqatgina sarflash emas, balki oldindan belgilangan natijalarga erishish ko'zda tutiladi, deb javob beradi.

Mazkur usulning afzalligi shundaki, byudjet mablag'larini rejalashtirish va taqsimlash xarajatlar turlari bo'yicha emas, balki dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi, ularning har birl maqsad, vazifa hamda baholashga mos son va sifat ko'satkichlaridan iborat. O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish usuli davlat byudjeti mablag'larini faqatgina eng samarador davlat dasturlarini amalgam oshirishga sarflanishini ta'minlaydi.

Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish konsepsiyasini joriy etilishda Byudjet Kodeksida asos solingan. O'z o'rnila Byudjet Kodeksi davlat byudjetining vazifa va maqsadlari, uning shakillanish va bajarilishining tartib-taomillarini belgilovchi hamda byudjet munosabatlarini boshqaruvchi me'yoriy-huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashni joriy etishdan tashqari, Byudjet Kodeksini amaliyotda qollash davomida turli aholi guruh va qatlamlarining ehtiyojlarini inobatga olish alohida o'r'in egallagan.

2014 yilda tasdiqlangan Byudjet Kodeksining 2 yil davomida tajriba tariqasida qo'llanilishi milliy qonunchilik sohasida amalga oshirilgan tashabbuslar har bir fuqaroning hayoti, turmushiga bevosita ijobjiy ta'sir ko'satishi mumkinligining yaqqol misoli bo'ladi, desak mubolog'a bo'lmaydi.

BIZNING LOYIHALAR						
2004	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
■ Turmush darajasini yaxhilash	■ Global atrof-muhit boshqaruvi tashkiloti uchun milliy salohiyatni oshirish borasida -gi ehtiyojlarни baholash	■ Chiqindilarini boshqarish strategiyasi -ni ishlab chiqish 2000–2004/2005–2009	■ Fugorolik jamiyat guruhlari salohiyatini kuchaytirish	■ Sport tadbirlari orqali nogironlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish		
			■ Bargoror daromad manbaini shakllantirish	■ O'zbekistonda atrof-muhit holatini monitoring qilish uchun ekologik ko'satkichlar		
			■ Orol dengizining qurib qolgan tubi va Qizilqumda ekotizimlarning turg'unligiga erishish. O'zbekiston — tayyorgarlik ko'rish bosqichi			



IYUL

- Havoga uchayotga «issiqxon» gazzarini kamaytirish bo'yicha ko'rzahma loyihalari
- O'zbekistonda Kugitang tog'lari bioxil-maxiligini saqlab qolish

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

- Global jamg'arma — Fidutsiar tizimini qo'llab-quvvatlash



# BUGUNGI ISH HAQI ERTANGI FAROVONLIK KAFOLATIDIR

Jamshid Sa'dullayev uchun yuqori sifatli poyabzal tayyorlash va ko'ncilikdagi mahoratini sayqallash barqaror daromadni ta'minlabgina qolmay, o'ziga bo'lgan ishonch va g'urur tuyg'usini uyg'otadi, turmush darajasini oshirish va jamiyatda munosib o'rın egallahini ta'minlaydi.

Jamshid Sa'dullayev Samarganddag'i imkoniyati cheklangan insonlar uchun mo'ljallangan kollej qoshida asos solingen "Top Men Shoes" ijtimoiy korxonasining o'nlab oddiy xodimlaridan biri sanaladi. Korxona asosiy qismini nogironlar tashkil etuvchi xodimlariga yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish, doimiy daromad olish va kelajakka oid rejalar qurish uchun sharoit yaratib beradi.

"Top Men Shoes" korxonasi BMTTD ko'magida O'zbekistonda tashkil etilgan 10 ta shunday korxonalarning biri sanaladi va 22 nafar xodim hamda 30 nafar talaba-ish o'rganuvchini doimiy va vaqtincha ish bilan ta'minlaydi.

Korxona rahbari Ibrohim Jo'rayevning ta'kidlashicha, "Top Men Shoes"ni iqtisodiy barqaror korxonaga aylantirishga erishildi, uning asosiy maqsadlaridan biri — o'z xodimlari uchun yaxshi hayot sharoitlarini yaratib berishdan iboratdir. "Bizning ijtimoiy korxonamiz imkoniyati cheklangan insonlar ishlashni bilishi va jamiyatda faol rol o'ynay olishi mumkinligini ko'satdi", deydi Ibrohim Jo'rayev.

"Bir qator sobiq talabalar turli kollejlar va bizning korxonamizda faoliyat yuritishmoqda, oldinlari bizning tashkilotimizda faoliyat yuritgan ayrim bitiruvchilar esa bugungi kunda mustaqil ravishda o'z bizneslarini boshlash arafasida turibdi".

Ushbu tashabbus doirasida olingan saboq va chiqarilgan xulosalar siyosiy darajada ijtimoiy moslashuvning milliy modelini ishlab chiqish sohasida tavsiyalarni tayyorlash hamda ushbu sohadagi mavjud qonunchilikni takomillashtirish yoki yangi qonunlarni ishlab chiqish taklifini kun tartibiga qo'yadi.

BIZNING LOYIHALAR					
2005	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY
■ BMTning Mingyillik maqsadlariga erishishga qaratilgan chora-tadbirlarini va BMTTD ish rejasiñ amalg'a oshirish sohasidagi mamlakat salohiyatini kuchaytirish	■ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamoat qurilishi akademiyasi qoshidagi Oly biznes maktabining o'quv va tadqiqot salohiyatini oshirish orqali davlat sektoridagi boshqaruv malakasini oshirish	■ Qulay sharoitlarni yaratish (III): Bioxilmalilik bo'yicha ish rejasi hamda vositachilik mexanizmi tuzilmalarini ishlab chiqishda ehtiyojlarini baholash va bu boroda salohiyatni oshirish	■ «Atrof-muhit va energiya» komponenti tadbirlarini amalga oshirishga yordam ko'satish	■ Orol dengizingin qurib qolgan tubi va Qizilqumda ekotizimlarning turg'unligiga erishish	■ O'zbekistonda tashqi savdo va sarmoya-lar bo'yicha institutlarning salohiyatini kuchaytirish va mustahkamlash
■ Qoraqalpog'istonda TDK loyihasi	■ Farg'ona vodiysidagi TDK loyihasi	■ Soliq tizimini isloh qilish va Soliq kodeksining yangi matnnini ishlab chiqish	■ Inson huquqlari sohasida davlat va fugarolik jamiyatni o'tsasidagi hamkorlikni mustahkamlash	■ O'zbekistonning tashqi siyosatiga o'id malasalarda Xalqaro iqtisodiyot va diplomatiya universitetining malakasini oshirish	■ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamoat qurilishi akademiyasining o'quv va tadqiqot salohiyatini oshirish orqali davlat sektoridagi boshqaruv malakasini oshirish
■ O'zbekistonda OIV/OITS bilan yashov'chi shaxslar qaror qabul qilish jarayonida faol ishtiroqini ta'minlash maqsadida ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish. O'zbekistonda OIV/OITS bilan yashov'chi shaxslar tarmog'ini tuzish	■ Maslahat berish xizmatlari orqali BMTning Mingyillik maqsadlariga erishish	■ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamoat qurilishi akademiyasi qoshidagi Oly biznes maktabining o'quv va tadqiqot salohiyatini oshirish	■ Xotin-qizlar q'omiitasining salohiyatini oshirish		



IYUL

- Nuratou-Qizilqum biosfera rezervati huddidaya yasho'vchi aholiniing hayot faoliyatini rivojlantrish
- Orol dengizi huddidida amalga oshirilayotgan xalqaro va milliy chora-tadbirlarini baholash
- OIV/OITSga qarshi kurashga qaratilgan milliy chora-tadbirlarni monitoring qilish va baholash tizimini yaratish

AVGUST

- Amudaryo deltasi va Qoraqalpog'istonagi to'qay o'rmonlarini saglab qolish va qo'riqlanuvchi tabiiy hududlar tizimini mustahkamlash
- Islohotlar jarayonini qo'llab-quvvatlash
- O'zbekiston biznes-forumi

SENTABR

- Parlamentning huquqiy va institusional imkoniyatlarni kuchaytirish
- OIV/OITS masalalari bo'yicha tibbiyot mutaxassislarini tayorlash, bu kasallik bilan bog'liq tamg'a va kamsitishlarga barham bersh orgali OIV/OITS bilan yasho'vchi shaxslarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokinи qo'llab-quvvatlash

OKTABR

NOYABR

- O'zbekiston Hukumatiga rivojanish maqsadida aloqa va ma'lumot texnologiyalarini hayotga tadbiq etishga yordam ko'rsatish
- Tashqi ishlar vazirligi yangi mingyillik masalalariga ogilona yondashish borasidagi salohiyatini kuchaytirish
- Qoraqalpog'istonning qishloq aholisi uchun toza energiya (II)

DEKABR

# QISHLOQNING BARQAROR RIVOJLANISHI

"Mana bu ajoyib sopol tuvakchalarga bir qarang, qo'l ishi bu, juda noyob", — deydi farg'onalik kulol Ibrohim. Qoraqalpog'istonda esa Suleyma gaz plita ustida bir qozon osh damlab qo'ygan. Ushbu ikki fuqaro bir-biri bilan hech qachon ko'rishmasligi mumkin, ammo ular birgalikda bugungi kundagi atrof-muhitni muhofaza qilishga hamda ertangi avlodlarning farovonligiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Biz Ibrohim va Suleyma kabi O'zbekistonning oddiy fuqarolari, aniqrog'i respublikaning 300 ta aholi punktida yashovchi 2 000 000 nafar kishi bilan birgalikda amalga oshirgan loyihamiz qishloq aholisi suv resurslari, tabiiy gaz va elektr quvvatidan foydalanish imkoniyatlarini yaratishga hamda maktab, bolalar bog'chasi va qishloq tibbiyot punktlari kabi ijtimoiy infratuzilmaning asosiy bo'g'inlarini ta'mirlashga qaratilgan edi.

Ilgari O'zbekistonning turli hududlarida joylashgan qishloq va shaharlarda yashovchi fuqarolar tabiiy gazdan foydalanish imkoniyati bo'lmagan tufayli o'z uylarini isitish va ovqat pishirish uchun daraxtlarni chopib, ularni o'tinga ishlatishtga majbur bo'lgan. Qishloq uylarining gaz ta'minoti tizimiga ulanishi qishloq aholisi issiqxona qurish, yoki Ibrohimga o'xshab sopol idishlarni ishlab chiqarishni yo'lda qo'yish va kichik tadbirdorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanish orqali daromadlarini oshirishga hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga o'z hissasini qo'shishga imkon yaratdi.

Dastur doirasida ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlarning asosiy turlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayganidan so'ng benefitsiarlarning turmushi tubdan o'zgarib ketdi. Loyihalar doirasida har bir aholi gurhining salohiyati alohida baholanib, ularning turmushini yaxshilash va shu bilan birga ular tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishini ta'minlash yo'llari sinchkovlik bilan belgilandi.

Qishloq aholisi tashabbuslarni rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida eng asosiy rol o'ynab, bu tashabbuslarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarning bir qismini o'z zimmasiga olishga rozi bo'ldi, qolaversa, kim o'zining mehnati, kim moliyaviy yordami, kim esa o'z bilim va tajribasi bilan bu tashabbuslarning muvaffaqiyatli amalga oshishiga o'z hissasini qo'shdi. Bunday yondashuv qishloq aholisida amalga oshirilayotgan tashabbuslar uchun jonkuyarlik hissini yug'otdi, har kim o'z salohiyatini anglab, o'z kuchiga ishonishiga yordam berdi.

Dastur Ibrohim va Suleymaga yordam bergenidan beri bir yildan ortiq vaqt o'tgan bo'sada, ularning ishlari hanuz a'lo darajada. Dastur Ibrohimga gaz ta'minoti tizimiga ulanishga yordam bergenidan beri u o'zining tadbirdorlik faoliyatini ancha kengaytirishga muvafq bo'ldi. Suleymaning esa uy-ro'zg'or tutishi ancha osonlashib, oila a'zolarini quvontirib yuribti. Dasturning ushbu yutuqlari ko'p yillarga saqlanib qolishi aniq.

BIZNING LOYIHALAR						
2006	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
<ul style="list-style-type: none"> <li>■ O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning salohiyatini rivojlantrish</li> <li>■ Institutional zamin, indoralararo aloqa bazasini magzadli ravishda mustahkamash va kasbiy rivojlantrish orqali Rio Konvensiyasini hayotga tadbiq etish uchun zarur bo'lgan milliy salohiyatni kuchaytirish</li> <li>■ O'zbekiston aholisining farovonligini oshirish strategiyasini ishlab chiqishda yordam-lashish</li> <li>■ O'zbekistonda biogaz texnologiyalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash</li> <li>■ Aholining adliya tizimidan foydalаниш имкониятларини кенгайтиш мақсадидунга унга huquqiy yordam ko'satish va huquqiy savodxonligini oshirish</li> <li>■ Qoraqalpog'iston va Farg'ona vodiysisida TDK loyihasi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>■ O'zbekistonda yangilanuvchi quvvat manbalari sektorini rivojlantrishga ko'mak-lashish</li> <li>■ Hududlarni majmuaviy ravishda rivojlanish dasturi</li> <li>■ Iqtisodiyot vazirligining samaradorligini oshirish maqsadida uning qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish</li> <li>■ Farg'ona viloyatida TDK loyihasi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>■ Tayyorqarlik bosqichidagi yordam: Aylol va erkaklar teng huquqligiga va rivojlanish</li> <li>■ BMning Mingyllik maqsadlarini monitoring qilish va hisobdarlikni ta'minlash maqsadida statistik salohiyatni oshirish</li> <li>■ O'zbekistonda atrof-muhit holatini monitoring qilish uchun Geografik ma'lumot tizimini qo'llash yordamida ekologik indikatorlar bazasini yaxshilash</li> </ul>				



IYUL

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

- O'zbekiston biznes-forumi
- Milliy rivojlanish maqsadlariga ajratilgan sarmoyalarni jaib etish jarayonini qo'llab-quvvatlash
- BMTTDning O'zbekistondagi vakolatxonasi xodimlarining gender masalalari bilan bog'liq dastur va tashabbuslarni ishlab chiqish sohasidagi salohiyatini osh

- Milliy strategik aloqa rejsi doirasida mahalliy davlat boshqarvi va fugarolik jamiyatni o'tasida OIV/OITsga qarshi umumiy kurashdga qaratilgan hamkorlikni OIV bilan yasho'vchi shaxslarni jaib qilgan ravishda mustahkamlash

- O'zbekiston bojxonasi ma'muriyatichiligi takomillashtirish



# BEMORLAR HAM MAMNUN, ATROF-MUHIT HAM TOZAROQ

O'zbekistonning qishloq vrachlik punktlarida ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati muntazam energiya ta'minotiga bevosita bog'liqligini anglab, BMTTD to'rtta klinikaning energiya ta'minoti tizimini yaxshilash orqali ularga elektr quvvati va gaz ta'minoti tanqisligi bilan bog'liq muammolarni yechishga yordam berdi. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi bitta va Toshkent viloyatidagi uchta qishloq vrachlik punktlarida ular hattoki energiya tanqisligi sharoitida ham to'xtovsiz ishlashini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bunda asosiy a'tibor yan-gilanuvchi va avtonom quvvat manbalarini qo'llashga qaratildi.

Ushbu chora-tadbirlarning misoli tariqasida qishloq vrachlik punktlarida quyosh energiyasi panellari hamda yordamchi quvvat ta'minoti tizimlarining o'rnatilishini keltirish mumkin. Bunday yechimlar hattoki uzoq vaqtgaha cho'zilib ketadigan elektr quvvatining o'chib qolishi hollarida ham asosiy va yordamchi tibbiy uskunalar to'xtovsiz ravishda ishlab turishi, tibbiy tahlillar tinimsiz amalga oshirilishi, maxsus uskunalarni sterelizatsiya qilinishi, dori-darmon va katsinalar kerakli haroratda saqlanishini ta'minlashga yordam beradi. BMTTD yechishga harakat qilayotgan yana bir muammo barqaror bo'lmagan gaz ta'minotidir, ayniqsa qish oylarida. Quyosh energiyasida ishlo'vchi suv isitish tizimlarini o'rnatish orqali klinikalarning markazlashgan gaz ta'minoti tizimiga qaramligini kamaytirilib, tabiiy gazdan foydalanish amaliyoti yondirgich uskunalarni mukammallashtirish orqali yaxshilandi. Bunday yechim gaz ta'minotining sifatini yaxshilabgina qolmay,

klinikalarning an'anaviy yoqilg'ilarga qaramligini kamaytirish evaziga ularning mablag'i ni iqtisod qilishga ham yordam beradi.

BMTTDning O'zbekistondagi faoliyati doirasida yechilgan yana bir masala binolar ichidagi doimiy haroratni saqlab turish masalasıdir, ayniqsa energiya ta'minotidagi mavsumiy o'zgarishlardan aziyat chekayotgan qishloq joylarida. Boshqa qishloq vrachlik punktlari kabi Toshkent viloyatida joylashgan "Boymuxamedov" klinikasi binosini takomillashtirish jarayonida klinika eshiklari, oynalari va shiftlarining issiqqlik izolyatsiyasi yaxshilanib, asosiy kirish qismi rekonstruksiya qilindi. Ko'pchilikka ma'lumki, O'zbekistondagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan inshootlar, shu jumladan qishloq vrachlik punktlari ham ichki haroratni saqlab turish uchun zarur bo'lgan energiya hajmidan 20 dan to 40 foizgacha ko'proq energiya iste'mol qiladi. "Boymuxamedov" klinikasining issiqqlik izolyatsiyasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar bunday nomutanosiblikni qisqartirishga yordam beradi.

BMTTD o'zining mazkur yo'nalishidagi faoliyati doirasida energiyadan oqilona foydalanish orqali klinikalarda ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish, butun mamlakat miqyosida "issiqxona gazlari" hajmini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar orqali klinikalarning uglerod izini qisqartirish hamda elektr va issiqqlik quvvatidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni kamaytirish yo'llarini yaqqol namoyish qilib kelmoqda.

## BIZNING LOYIHALAR

2007	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
	<ul style="list-style-type: none"> <li>■ Dasturlarning samaradorligini oshirish</li> <li>■ O'zbekistonning qishloq klinikalarida elektr quvvati va issiqqlik ta'minotini yaxshilash</li> <li>■ BMTTDning 2007-yilda Qoraqalpog'iston-da turmush darajasini yaxshilash bo'yicha muvaqqat strategiyasi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>■ Qoraqalpog'iston va Qizilqumdagagi tanaz-zulga uchrangan yerlarda ekotizim turg'un-ligiga erishish</li> <li>■ O'zbekistonda davlat moliya tizimini is-loh qilish</li> <li>■ O'zbekistonda chorvachilikning barqaror rivojanishini qo'llab-quvvatlash</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>■ Migrant ischhi ayollarning huquqlarini himoya qilish</li> <li>■ O'zbekistonda ayollar huquq va imkoniyatlarini kengaytish sohasida huquqiy va institutional salohiyatini oshirish</li> <li>■ O'zbekistonda toza rivojlanish mezinazmi loyihibarini amalga oshirish salohiyatini kuchaytirish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>■ O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni ko'zlab milliy huquqiy ma'lumot tizimini takomillashtirish</li> <li>■ O'zbekistonda toza rivojlanish mezinazmi loyihibarini amalga oshirish salohiyatini kuchaytirish</li> <li>■ Tayyorgarlik bosqichidagi yordam: O'zbekiston uchun surʼy resurslaridan majmuaviy ravishda foydalanish rejasи</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>■ Aloqa va ma'lumot texnologiyalaridan uzoq qishloq joylarida yasho'vchi kam ta'minlangan aholinin tibbiy diagnostika qilishda foydalanish</li> <li>■ Hududlarni majmuaviy ravishda rivojanirish dasturi</li> </ul>	



IYUL

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

- Andijon va Namangan viloyatlarida TDK loyihasi
- BMTning OITSga qarshi kurash bo'yicha qo'shma guruhini mustahkamlash va O'zbekistonda tegishli xizmatlarga keng yo'l ochish jarayonini qo'llab-quvvatlash



# SAHRODAGI BOG'LAR

Navro'zxon Alanova uchun uning bog'i deyarli bir mo'jiza. Hozir oila uchun meva-sabzavotlar yetishtirayotgan unumdar yer o'rnda bir paytalar qum uchib yurar, quruq, tashlandiq joylar edi.

Navro'zxon yashayotgan Qozoqdaryo Orol dengizi qurishidan aziyat chekkan sobiq baliqchilar posyolkalaridan biri. Dengizda suv sathining pasayib ketishi natijasida chang holatida uchib yuruvchi qumdan iborat bo'lgan minglab gektar maydon hosil bo'lib, bunday vaziyat bu kabi qishloqlarda yashayotgan aholi salomatligi va turmush tarziga salbiy ta'sir ko'ssatib kelmoqda. Loyiha mahalliy boshqaruv organlari bilan hamkorlikda hududda ekotizimning turg'unlashuviga erishishga, harakatlanadigan qum yo'nalishini aniqlashga, biologik xilma-xillikni saqlab qolishga va barqaror asosda mahalliy aholini ijtimoiy-iqtisodiy ta'minlashga harakat qilmoqda.

Loyiha ekspertlarining aholi orasida bog'dorchilik sohasidagi malakalarni oshirishga qaratilgan harakatlari o'zining dastlabki samaralarini bera boshladi. Bundan bir necha yillar oldin bor-yo'g'i 400 xonadoning 7 tasigina ekiladigan tomorqaga ega bo'lgan bo'lsa, hozir ular 80 tadan oshdi. Loyiha ekspertlari ko'magi va maslahatlari bilan aholi hozirgi kunda olma, shaftoli, o'rik, pomidor, lavlagi va boshqa ko'pgina meva, sabzavotlar yetishtirishni o'zlashtirdilar.

Qishloq xo'jaligida an'anaviy usulning qo'llanishi va ekinlarni sug'oradigan suvning yetishmasligi sababli aholi bog'dorchilik bilan shug'ullanmasdi. Loyiha qishloq aholisi uchun eng zarur ko'nikmalarini o'zlashtirishga imkon beradigan amaliy treninglarni tashkil qilish bilan bu muammolarning yechilishiga ko'maklashdi. Loyiha ko'magida qo'lga kiritilgan suv nasoslari sug'orishni yengillashtirdi. Nasoslar hozirda mo'l hosil berayotgan tomorqa yerlariga suv tortib beradi. Bog'dorchilikni yo'nga qo'yish bugun yaxshigina daromad keltira boshladi. Tomorqada yetishtirish aholiga oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti, ular ratsionining boyishi, qo'shimcha daromad manbai, eng muhimi, mikroiqlimning yaxshilanishiga olib kelmoqda. Nati-jada, aholi iqtisodiy turmush darajasining ortishi, inson salomatligi yaxshilandi.

Navro'zonning onasi qizining mehnatlari o'z mevasini bera bosh-laganini zavqlanib aytadi. "Endi bog'imiz daraxtlar bilan to'lgan va yaqinda hosil ola boshlaymiz, – deydi u. – Men qizimning bog'dorchilikni o'rganayotganidan xursandman. Bizning farzandlarimiz, nabiralarimiz bu yerlarni avlodlarga meros qilib qoldiradi va posyolkamizda atrof-muhitni yaxshilash, tajribalarni nasllarga o'tkazish eng katta vazifamizdir".

BIZNING LOYIHALAR						
2008	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
<ul style="list-style-type: none"> <li>■ O'zbekistonda GFning Kichik grantlari dasturining yaratilishi hamda muvaffaqiyatlari amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash</li> <li>■ Rivojanish dasturi loyihasini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish</li> <li>■ O'zbekistonning qishlog klinikalarida energiya jihatda samarador bo'lgan va yangilanuvchi quvvat manbalarini hayotga tadbiq qilish bo'yicha loyihalarni tajriba tariqasida amalga oshirish</li> <li>■ Migrant ischiyo yollarning huquqlarini himoya qilish (I)</li> <li>■ Orol dengizi muammolari, ularning genofond, o'simlik va hayvonot dunyosiga ko'ssatayotgan ta'sirini kamaytirishga qaratilgan xalqaro hamkorlik</li> <li>■ O'zbekistonda arbitraj sudari va bahslarni yechis bo'yicha boshqa muqobil yo'llarini rivojlantirishga yordamlashish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>■ Tayyorgarlik bosqichidagi yordam: Milliy melioratsiya jamg'armasining salohiyatini oshirish</li> <li>■ Inson rivojlanishi konsepsiysasi sohasida o'quv muassasalarini yaratish va ularning salohiyatini oshirish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>■ O'rioxonalarga alohida e'tibor qaratqan holda milliy to'riqlanuvchi hududlar tizimining bargorligini ta'minlash</li> </ul>				



IYUL

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

- Toshkentda zilzila xavfini boshqarish sohasida milliy salohiyatni kuchaytirish
- Nogiron shaxslarga ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, ijtimoiy faoliyat yuritish va ish topish imkonlarini keng yaratib berish

- Baholash usullari va amaliyotini ishlab chiqishda qo'llab-quvvatlash
- Farg'ona vodiysida turmush darajasini yaxshilash dasturi



# TO'QAY O'RMONLARINI SAQLAB QOLISH

O'zbekistonning Amudaryo havzasida joylashgan to'qay o'rmonlari mamlakatning noyob va shu bilan birga tez sur'atlarda nobud bo'lib ketayotgan qimmatli biosferalaridan biridir. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida yer resurslarining qo'pol ravishda, haddan tashqari ishlatalishi, suv resurslarining kamayib ketishi va o'rmon yong'inlari oqibatida bu to'qay o'rmonlарining atigi 10 foizi saqlanib qoldi.

Biz saqlanib qolgan qismini muhofaza qilish va mahalliy aholi o'rmon resurslaridan tejamkorona foydalanishini ta'minlashda yordam berishga erishdik. Shu maqsadda BMTTD to'qay o'rmonlarini saqlab qolish va ularni O'zbekistonning qo'riqlanuvchi tabiiy hududlari tizimiga kiritishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni izchil amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, BMTTD tomonidan qo'riqlanuvchi tabiiy hududlarni har xil zonalarga bo'lib boshqarish usulini namoyish etish, to'qay o'rmonlарining ahamiyati to'g'risida jamoatchilikning bilim va tushunchalarini yaxshilash va ekotizimini saqlab qolishga qaratilgan tashabbuslarda mahalliy aholining faol ishtirotini ta'minlash borasida ham keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur tadbirlar natijasida 2011-yilda biosfera rezervati vujudga keldi.

To'qay o'rmoni resurslarini muhofaza qilish bilan bir vaqtida mahalliy aholining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida bir qator kichik iqtisodiy rivojlanish tashabbuslari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Mahalliy aholi tomonidan o'rmon daraxtlarining chopilishiga barham

berish maqsadida loyiha doirasida aholini muqobil yoqilg'i manbai bilan ta'minlash vazifasi qoyildi. Ushbu vazifani yechish uchun loyiha 6 ta gaz taqsimlash uzelini o'rnatib, undan 86 ta uy xo'jaligi, shu jumladan, ilgari gaz ta'minoti tizimiga umuman ulanmagan 26 ta uy xo'jaligiga tabiiy gaz yetkazishni ta'minladi. Uy xo'jaliklari gaz bilan ta'minlangani tufayli har isitish mavsumida 16 hektar o'rmonni saqlab qolishga erishilmoqda. Bunday isitish mavsumi esa hududda kuz faslining oxiridan to bahoming boshlarigacha davom etadi.

Shuningdek, loyiha tanazzulga uchragan yerlarni qayta tiklashga qaratilgan tadbirlar hisobiga fermerlarga ham muqobil daromad manbaini shakllantirishda yaqindan yordam berdi. 4 ta tumandan 21 nafar dehqon xo'jaligi egalari o'rmonlarni qayta tiklash va qo'shimcha daromad olish maqsadida 91 hektar tanazzulga uchragan yer maydonlarini ijara qiladi. Ijaraga olingan yerda ijarchilar daraxt ekib, ularning orasiga esa o'z xo'jaligining iste'moli uchun turli sabzavotlar ekdi.

Qishloq xo'jaligini yuritishda tejamkor va samarali usullarning amalga tatbiq etilishini qo'llab-quvvatlab, BMTTD 80 hektar o'rmon maydonini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, loyiha mahalliy aholi yashovchi uylarning termoizolyatsiyasini yaxshilashda yordam berib, yoqilg'i xarajatining qisqartirilishiga o'z hissasini qo'shdi. Shuningdek, loyiha mollarni o'tlatish usullarini takomillashtirish va qishloq xo'jaligi unumdorligini oshirish borasida ham bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

BIZNING LOYIHALAR						
2009	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
<ul style="list-style-type: none"> <li>■ Texnologiyalar transferti sohasida milliy salohiyati kuchaytirish</li> <li>■ Qoraqalpog'istonda ko'ngillilik harakati doirasida kamta'minlanganlik va silga qarshi kurashish borasidagi qishloq aholisining salohiyatini oshirish</li> <li>■ OIV profilaktikasi va davolanshanizmizmattariga keng yo'chishda fugarolik jamiyatni, jumladan OIV-bilan yasho'vechi shaxslarning ishtiroti va hamkorligini rag'batlanirish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>■ Milliy va mahalliy miqyoslarda iqtisodiy prognozlash va rejalashtirish salohiyatini oshirish</li> <li>■ Institutsiyonal bazani mustahkamlash va kasbiy rivojlantrish orqali Rio Konvensiyasini hayotga tadbiq etish uchun zarur bo'lgan milliy salohiyatni kuchaytirish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>■ O'zbekistonning neft va gaz sektoriga bi-oximaxillikni saqlash tamoyillarini kiritish</li> <li>■ O'zbekistonda donor yordamini muvoqqalashtrish bo'yicha institutlarining salohiyatini oshirish va mustahkamlash</li> </ul>				



IYUL

- Mikromoliyalashtirish sektorini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlash
- O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning salohiyatini oshirish

AVGUST

- Parlament bilan birlgilikda mamlakatning institutional va qonunchilik salohiyatini oshirish sohasidagi loyihalarni ishlab chiqishga yordam berish

SENTABR

- Sug'oriladigan yerlarning holatini yaxshilash jamg'armasining salohiyatini oshirishga yordam ko'sitsish
- O'zbekistonda ayol va erkaklar uchun teng bandlik imkoniyatlarini ta'minlash uchun manlakatning qonunchilik va institutional bazasini takomillashtirish
- O'zbekistonning ijtimoiy inshootlariда energiya samaradorligini oshirish

OKTABR

NOYABR

DEKABR



# QISHLOQ MUAMMOSINING QISHLOQDAGI YECHIMI

O'zbekistonning g'arbiy qurg'oqchil qismida joylashgan Kanal-yoqa qishlog'ida Tozagul Qosimova ismli bir ayol yashaydi. U o'z qishlog'ida hurmat qozongan o'qituvchi, jonkuyar, yetakchi ayoldir. Shuningdek, u turmush o'rtoq, ona va uy bekasi hamdir. Barcha qo'shnilar kabi Tozagul o'zining har kunlik vazifasi — u ham bo'lsa oilasi uchun toza ichimlik suv manbaini topish bilan mashg'ul. Shu bilan birga, u o'z qishlog'ida ichimlik suvi tanqisligi muammosini yechishga bel bog'lاب qishloq aholisini ham shu ishga jalg etdi.

Biz qishloqda suv ta'minoti tizimini o'rnatib, Kanal-yoqa qishlog'inining ichimlik suvi iste'molchilar tashkilotiga asos solinishiga yordam berdik. Mazkur tashhabbusning Kanal-yoqa va boshqa qishloqlarga tekkan foydasi beqiyosdir. "Qishloq ichimlik suvi iste'molchilar tashkiloti o'z qishlog'imizning ichimlik suvi muammosini o'zimiz, o'z kuchimiz bilan yechishga imkon berdi", - dedi Tozagul. Tozagulning o'zi ham mazkur tashkilotning eng asosiy a'zolaridan biri hisoblanadi.

Kanal-yoqa aholisi loyiha tomonidan ajratilgan moliyaviy va texnik ko'makdan to'liq va oqilona foydalanib, loyiha tadbirdarini amalgam oshirishda o'z mehnati, bilim va tajribasini ayamadi, quduq qazish, yangi nasos tizimi va quvurlarni o'rnatish hamda ko'chalarda kranlar tizimini qurishda katta ixlos va jonkuyarlik bilan qatnashdi. Shuningdek, Tozagul kabi qishloqning yetakchi vakillari qo'shni qishloqlarga borib, u yerdag'i aholi bilan suv ta'minoti va sanitariya sharoitlarini

yaxshilash usullarini baham ko'rdi, tozalanmagan suv ichish tufayli tarqalayotgan kasalliklarni suv ta'minoti va sanitariyani yaxshilash orqali 25-30 foizga qisqartirish mumkinligini tushuntirdi.

Hozirgi kunda qishloq ichimlik suvi iste'molchilar tashkiloti orqali 160 ta uy xo'jaligi sog'lom va obod qishloq haqidagi orzusini ro'yobga chiqarishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Qishloqning yangi suv ta'minoti tizimi 150 metr chuqurlikdagi quduq va unga ulangan bakterisid moslamadan iborat bo'llib, u qishloqning 840 nafar aholisini kuniga 50 litr suv bilan ta'minlash quvvatiga ega. Suv ta'minotini takomillashtirishga qaritilagan tadbirdardan tashqari, mahalliy o'qituvchilar sanitariya va gigiyena bo'yicha maxsus o'quv mashg'ulotlarida qatnashib, olgan bilim va ko'nikmalarini o'quvchilariga yetkazadi.

Shuningdek, loyiha doirasida suv ta'minotiga oid butun bir milliy qonunchilik ham ishlab chiqilmoqda, jumladan, bu tadbir Suv kodeksi loyihasini ishlab chiqishdan iborat. Mazkur kodeks yangi me'yorlar, jumladan, mahalliy tashhabbuslarda jamoatchilikning ishtiroti hamda qishloq joylarida suv ta'minotini takomillashtirish borasida qaror qabul qilish jarayonida ayollarning yetakchi rol o'ynashini taqozo qiluvchi me'yor va qoidalarni o'z ichiga oladi. Xususan, yangi kodeksda uy xo'jaliklarini xavfsiz ichimlik suvi bilan ta'minlashda ayollarning muhim o'rni e'tirof etilib, qishloq ichimlik suvi iste'molchilar tashkiloti faoliyatida ayollar yetakchilik vasifalarini bajarishi belgilangan.

## BIZNING LOYIHALAR

2010

YANVAR

FEVRAL

MART

APREL

MAY

IYUN

- Zarafshon daryosi havzasini uchun suv resurslarini majmuaviy ravishda boshqarish va suvni tejash rejasiga
- Markaziy Osiyoda OITSGa qarshi kurashdagi soliyatni oshirish loyihasi
- Yer resurslarini boshqarish kengashi

- Innovatsia siyosati va texnologiyalarning transferti sohasida qo'llab-quvvatlash

- Mahalliy boshqaruv tizimini qo'llab-quvvatlash: fuqaroviylar ishtirok va hamkorlik

- BMTTDning O'zbekistondagi dasturini amalga oshirish bo'yicha lsh rejasiga yordamlashtish

- O'zbekistonda tashqori savdo va investitsiyalarni ilgari surishda yordam berish

- O'zbekistonda byudjet tizimini isloh qilish



IYUL

■ O'zbekistonda tabiiy ofatlar xavfini bosh-qarish borasidagi salohiyatni oshirish

AVGUST

■ Parlament rivojlanishini qo'llab-quvvatlash

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

■ O'zbekistonning neft va gaz sektoriga bi-oxilmallilikni saqlash tamoyillarini kiritish



# SIFATLI INSHOOTLAR — TOZA ATROF-MUHIT

Biz ijtimoiy inshootlarda energiya iste'molini va shu jarayon bilan bog'liq bo'lgan chiqindi gazlar chiqarilishini qisqartirish maqsadida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdamiz.

Mazkur tashabbusning naqadar muhimligini O'zbekistondagi umumi energiya iste'molining qariyb yarmi aynan ijtimoiy inshootlarga to'g'ri kelayotgani ham ko'rsatib turibdi. Aksariyat hollarda bu qurilish me'yor va qoidalari energiya samaradorligining umum qabul qilingan xalqaro talablariga muvofiq kelmasligi bilan bog'liq. Respublikada yangi qurilayotgan va rekonstruktsiya qilinayotgan binolarda energiya samaradorligini ta'minlash zarurligi e'tirof etildi.

Loyiha doirasida alohida e'tibor qaratilayotgan inshootlarga sog'lijni saqlash va ta'l'im sohasidagi binolar, ya'nı maktablar va qishloq vrachlik punktlari kiradi. Shunday inshootlar misolida integratsiyalashgan konstruktsiyalarning afzalliklarini namoyish qilish, shuningdek, mahalliy mutaxassislarni energiya samaradorligini ta'minlovchi inshootlarni qurish va ulardan foydalanish qoidalari o'qitish mumkin. Shu bilan birga loyiha tegishli institatlarga davlat qurilish me'yor va qoidalarni takomillashtirishga ham ko'mak ko'rsatadi.

Loyiha doirasida bir qator muhim natijalarga erishildi, jumladan, davlat va ma'muriy idoralar hamda sog'lijni saqlash muassasalarining binolariga taalluqli bo'lgan 9 ta qurilish me'yor va qoidalari qayta ko'rib chiqildi.

Boshqa qayta ko'rib chiqilgan qurilish qoida va me'yordagi issiqlik izoliyatsiyasi, ventilyatsiya, tom qurish, binolarning loyihalari oид hujjatlarni muvofiqlashtirish va tasdiqlash masalalariga oid. Bundan tashqari, energiya samaradorligi sohasidagi 53 ta yangi atama joriy etilib, oltita tajriba inshootida energiya iste'moli monitoringi tartibi hamda binolarni majmuaviy ravishda loyihalashtirish bo'yicha maxsus qo'llanma ishlab chiqildi.

Energiya jihatdan samarador bo'lgan binolarning afzalligi atrof-muhitga zararli ta'sirning kamligigina emas, balki xususiy uy va xonadonda istiqomat qiluvchi fuqarolarning har kunlik yashash sharoitlarining yaxshilanishidir. Shunday qilib, qurilish sohasidagi eng ilg'or texnologiyalarni O'zbekistonda amalga tatbiq qilish maqsadida tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirib, BMTTD kelajak avlodlar uchun yanada sifatliroq binolar qurilishi va atrof-muhitni yanada tozaroq saqlashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

## BIZNING LOYIHALAR

2011 YANVAR

FEVRAL

MART

APREL

MAY

IYUN

- O'zbekiston biznes-forumi (II)
- O'zbekistoni past-uglerodli iqtisodiyot rivojanishi yo'liga o'tishda qo'llab-quvvatlash
- O'zbekistonda iqlim xavflarini boshqarish

- Global jamg'armaning 3-bosqich grant loyihasini amalga oshirish

- Farg'onada vodiysida radiaktiv chiqindilarni boshqarish sohasidagi salohiyatni oshirish va erta ogohlantirish tizimi
- Bandikni ta'minlashda ijtimoiy hamkorlik
- Global jamg'arma: Aholining eng ijtimoiy ojiz qatlamlariiga e'tibor bergen holda OIV-infeftsiyasiga qarshi kurash ko'lamini kengaytirish



IYUL

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR



# BILIM OVNING OLDINI OLISHDAGI MUHIM OMILDIR

Zebiniso Muhsinova hali o'smir bo'lishiga qaramay, allaqachon ko'p yillik tajribaga ega mutaxassis va trenerlarga xos dadillik bilan maktab o'quvchilari uchun OIV masalalaridan xabardorlikni oshirish bo'yicha mini-sessiyalar o'tkazmoqda. "Yoshlar loyihada shunday faol ishtirok etayotgani va OIV-infektsiyasi, tanosil kasalliklari, giyohvandlik va ulardan o'zini saqlash haqida ko'proq bilishga qiziqayotgani ajoyib", deydi Zebiniso.

Mamlakatdagi yuzlab yosh faollar, trenerlar va ko'ngillilar loyihada ishtirok etib va yoshlarga epidemiya bilan kurashishda yordam beradigan zarur bilimlarni yetkazib, OIV tarqalishiga qarshi o'z qat'iyatlarini namoyish etmoqdalar. "Tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalarimiz, odatda, bu masalalar yuzasidan umumiy, yuzaki tasavvurga ega, — deydi Zebiniso, — biroq uning inson organizmiga yetkazadigan oqibatlari va ulardan qanday himoyalanish mumkinligi haqida chuqurroq tushuncha yetishmaydi. Men bu bo'shlilarni to'ladirishga harakat qilaman va o'quvchilarning mashg'ulotlarimga bo'lgan qiziqishini ko'rib suyunaman".

Bugungi kunda biz 70000 nafardan oshiq yoshlarga OIV profilaktikasi xizmatlari ko'rsatilishini ta'minladik, bu O'zbekistonda yashayotgan 15 dan 24 yoshgacha bo'lgan 15 millionli aholining faqatgina kichik bir qismini tashkil etadi. Yosh trenerlar uchun maktab va kollejlardagi treninglar, mini-sessiyalar, axborot-ma'naviy materiallarni tarqatish

va faol ishtirok etish hamda ko'ngillilarning o'z ishiga sodiqligi O'zbekiston yoshlari orasida profilaktik tadbirlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Zebinisoning 20 yoshli o'rtog'i — trener Rasul Karimovni o'z o'quvchilarining ijtimoiy masalalardan xabardorlik darajasi va ularning boshqa o'quvchilardan olgan axborot va bilim almashishga istagi darajasi ta'sirlantirdi. "Biz bilan birga ishlaydigan bolalar nafaqat o'qishadi, balki o'z bilimlarini do'stlari va tengdoshlari bilan o'rtoqlashishadi. Treninglardan so'ng ko'pincha menga ishtirokchilar o'zlarini oltinayishadi. Tengdoshlarning ishtirokchilari o'zlarini o'quvchilardan oltinayishadi", — deydi Rasul.

"Ular biz o'rgatayotgan barcha bilim va ko'nikmalarni to'liq egallashga intilishadi, keyin esa ularni o'z do'stlari, tengdoshlari va oila a'zolari bilan o'rtoqlashishadi".

Butun aholining 50 foizini tashkil etadigan O'zbekiston yoshlari orasida OIV profilaktikasi tadbirlari mamlakatning barcha hududlarida davom etmoqda. Ko'pgina yoshlar Zebuniso va Rasulning ishtyoqiga sherik bo'lmoadalar va oltinayishadi. Tengdoshlarning ishtirokchilari o'zlarini o'quvchilardan oltinayishadi, bu bilan ularning O'zbekistonda OIV haqida xabardorlik darajasini oshirishadi.

## BIZNING LOYIHALAR

2012

YANVAR

FEVRAL

MART

APREL

MAY

IYUN

- Aholining eng ijtimoiy ojiz qatlamlari ga e'tibor bergan holda OIV-infektsiyasi qarshi kurash ko'lamini kengaytirish va OIV profilaktikasi, davalanish va parvarishlanish bo'yicha xizmatlarga keng yo'l ochish

- Orol dengizi inqirozi natijasida aziyat chekkan aholining hayot faoliyatini ta'minlash

- O'zbekistonning tog'liyarm-cho'lva cho'l qurg'oq yerlariga ishllov berishdagagi raqobat natijasida tabiat resurslarining haddan tashqari ko'p ishlatalishini kamaytrishi

- O'zbekistonda GEFning Kichik grantlar dasturi doirasida qishloq aholisi va boshqaruv organlari bilan hamkorlik o'maitishi ga yordamlashish
- Fugorlik sudsularini ishl qilish: samarador sud ma'muriyatchiligi
- O'zbekistonda ijtimoiy innovatsiyalar va ko'ngillilik



IYUL

■ Yaratilgan Quyi-Abudaryo Davlat Biosfera rezervatining samaradorligi va barcharor faoliyatini ta'minlash

AVGUST

SENTABR

■ O'zbekistonda 2011–2020-yillarda BMTning bioxilmoxillik konvensiyasini amalga oshirish strategiyasini qo'llab-quvvatlash rejasi

OKTABR

NOYABR

DEKABR

■ OITS, sil va bezgakning tarqalishi bilan bog'liq muammolarni yechish sohasida milliy soliyatni mustahkamlash



# TANAZZULGA UCHRAGAN YERLARNING SIFATINI OSHIRISH

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi kabi tanazzulga uchragan yerlarni o'z-o'zini ta'minlovchi, ekologik va qishloq xo'jaligining yuqori hosildorligini ta'minlovchi hududlarga aylantirish uchun resurslarni tejovchi sug'orish usullarini joriy etish talab etiladi. Yerlarni lazer niveli yordamida tekislash kabi sinalgan texnologiyani joriy qilish suv resurslaridan yanada samarali foydalanish, yuqori hosildorlikka erishish va bunda yerning mahsulorligini saqlab qolishga erishish imkonini beradi.

Bu muammo ayniqsa Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun dolzarb, negaki bu yerda Orol dengizi hududidagi ekologik inqiroz va yerning kuchli tuzlanganlik darajasi keyingi yillarda qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish uchun suv resurslarining tanqisligi jiddiy sezilmoqda. Iqlimi omillardan tashqari suv resurslari yetishmasligining sababi sug'orish uchun ishlataladigan suvning qishloq xo'jaligi ekinlarini eski texnologiyalar va sug'orish metodlaridan foydalanib yetishtirayotgan fermer va dehqonlar tomonidan samarasiz foydalanilishi

hamdir. Bunday holat bu yerda suvni tejaydigan, hamyonbop texnologiyalarni tatbiq etishni taqozo qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Qonliko'l, Shumanay va Mo'ynoq tumanlaridagi 78 nafar fermerga lazer niveli yordamida yerni tekislash uskunalarini qo'llashga o'rgatish uchun trening tashkil etildi, bu usul sug'orilish uchun ishlataladigan suvlarini teng taqsimlash, teng namlantirish va bu bilan ekilgan ekinlarning teng o'sishini ta'minlashga imkon beradi. Treningda ishtirok etgan fermerlar yerlarni tayyorlash tartibi, dala relyefini o'rganish texnikasi bilan tanishishib, olingan bilimlarini amaliyotda qo'llashni o'rgandi.

Sug'orishning samarali usullarini qo'llash O'zbekistonda iqtisodiyotning o'sishini va aholi farovonligini ta'minlashda muhim rol o'yinaydi, negaki qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 90 foizdan ziyodi sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi.

BIZNING LOYIHALAR						
2013	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
<ul style="list-style-type: none"> <li>■ Iqtisodiy diplomatiya siyosatini takomillashtirish va samarali amalg'a oshirish sohasida milliy salohiyatni oshirish</li> <li>■ Modernizatsiya, reformalarini tezlatish va yangilanishga yordam berish</li> </ul>						



IYUL

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR

- O'tish davridagi mamlakatlarda gidrox-lorftoruglerodni tasarrufdan chiqarish loyihasining birlamchi bosqichi



# AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASH

Bonuning ish faoliyati O'zbekistonda ayollar uchun noan'anaviy hisoblangan kasblarda ayollar o'z salohiyatini namoyon etishi borasidagi sa'y-harakatning dalilidir. Toshkent bo'ylab ertalabdan to kechgacha tramvay haydab, Bonu o'zining ikki nafer farzandini tarbiyalash uchun yetarlicha mablag' topadi hamda o'z hamshaharlariga xizmat qilish imkoniyatiga egaligidan faxlanadi.

"Oramizda shaxsiy hayat va kasbimizni tanlash imkoniyatini cheklab, qilayotgan ishimizga ta'sir ko'rsatayotgan, qolip bo'lib qolgan turg'un qarashlar hali ham mayjud, - deydi Bonu Otajonova, - aynan shuning uchun ham odamlarning fikrashi, munosabatini o'zgartirish har doim muhim bo'lgan. Faqat shu yo'l orqali biz har bir qiz yoki o'g'il bola, ayol va erkak o'zining salohiyatini to'liq namoyon etib, o'z orzulariga erishishiga yordam bera olamiz".

Bonu tanlagan kasbi hanuz noodatiy deb hisoblansada, BMTTD o'zining milliy hamkorlari bilan birga amalga oshirayotgan tashabbuslari natijasida undan o'rnak olayotgan xotin-qizlar soni tobora oshib borayapti. Ayol kishining o'ziga yoqqan ish bilan shug'ullanishi unga moliyaviy mustaqillik, farzandlariga yanada ko'proq g'amxo'rlik qilish imkonini berib, uning o'z qadr-qimmatini anglash va o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytirishga yordam beradi.

BMTTD ayollarni ish bilan ta'minlanish ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan faoliyati doirasida O'zbekiston xotin-qizlarini kichik biznes sohasi-

ga jalb etishga o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda. Ushbu maqsadda BMTTD tomonidan barcha erkak va ayollar uchun muvaffaqiyatli, mustaqil biznes boshlash borasida maxsus o'quv mashg'ulotlar o'tkazilish hamda tegishli ma'lumot tarqatish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Jitimoiy korxonalar hamda inklyuziv biznes modeliga asoslangan tadbir-korlik korxonalari yaratilmoqda. Ayollarning kichik biznes sohasiga bosqichma-bosqich kirib kelishi aholining bandligini ta'minlashdagi gender muvozanati va teng huquqlikka erishish yo'lidagi ilk qadamlardan bira bo'ssada, bu ijobji o'zgarishlar belgisidir.

BMTTD ayollarni ish bilan ta'minlash jaroyonida teng huquqlik va gender muvozanati tamoyillarini amalga tatbiq etish uchun ayollarga kasbiy ta'lif berishning ahamiyotini keng jamoatchilikka tushuntirish hamda bu g'oyani ta'lif sohasidagi mutaxassislar uchun yaratilayotgan dasturlarda yoritish lozim deb hisoblaydi.

Bundan tashqari, an'anaviy "erkaklar" kasbi deb hisoblanmish kasblarni o'zlashtirishga ayollarni ko'proq jalb etish maqsadida maxsus kvota va stipendiyalar ajratish hamda aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda ham erkaklar hamda ayollar fikrini birdek inobatga olish tavsiya etiladi.

BIZNING LOYIHALAR						
2014	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
■ Mahalliy boshqaruv tizimini qo'llab-quvvatlash loyihasi (II)	■ Tashqi yordamni muvoffiqlashtirish loyihasi	■ O'zbekistonda tashqi savdoni ilgari surishda yordam berish				



IYUL

AVGUST

SENTABR

OKTABR

NOYABR

DEKABR



